

# Khan Academy O'zbek

## MOLIYAVIY HISOBOT

Sentyabr, 2019

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha uchinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.

Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyihasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.

**2019-yil sentyabr oyida loyihaga 904 310 so'm xayriya qilindi, 124 347 925 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:**


Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Ma'muriy xarajatlar	-2 000 000
Bank xarajatlari	-488 218
Tarjima	-20 760 000
Tahrir	-17 564 506
Video	-15 680 000
Arenda	-1 200 000
Marketing	-38 439 800*
Fandreyzing (mablag' yig'ish)	-1 272 727
Platforma integratsiyasi va targ'ibot**	-9 000 000
Aloqa xarajatlari (internet, telefon)	-5 260 484***
Soliqlar	-12 157 190
Boshqa xarajatlar	-525 000
<b>Jami</b>	<b>-124 347 925</b>

\*Sentyabr oyida Khan Academy O'zbek jamoasi bir nechta ko'rgazmalarda ishtirok etdi. [EduFair 2019](#), [EduExpo 2019](#) lar shular jumlasidan. Tadbirlarga sarflangan xarajatlar marketing xarajatlari deb belgilandi.


\*\*Platforma integratsiyasi va targ'ibot – bu Khan Academy platformasini davlat ta'lim dasturlariga joriy qilish, ya'ni maktablar va o'qituvchilar bilan ishlash jarayonidir.

\*\*\*Sentyabr oyida internet xizmati uchun 5 oyga oldindan to'landi.

**Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:**



Ya'ni sentyabr oyida xarajatlarning deyarli 44 foizi (54 004 506 so'm) kontentni yaratishga, ya'ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) koʻrish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) koʻrish mumkin.
- Tayyor video darslarni [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

---

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>